

MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.

Ibragimov. A.T.

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston aholisi zich joylashgan mintaqalar tarkibiga kiradi va strategik ahamiyatga ega bo'lgan, ya'ni Markaziy Osiyoning «yuragida», Yevropa va Osiyoning transport yo'laklari kesishgan qulay mintaqada joylashgan. Shu bilan birga, mamlakatimiz xorijiy kompaniyalar uchun o'z mahsulotlarini sotish uchun qulay bozor bo'libgina qolmay, balki yuqori texnologik ishlab chiqarishlar va tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxonlarni barpo etish uchun investitsiyalarni kiritish maqbul bo'lgan mamlakat sifatida ham ko'rilmogda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston aholisi, strategiya, Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, intellektual salohiyat, tashqi bozor, resurs, Investitsiya, iste'moldagi cheklov, iste'molchi tanlovi, texnika va texnologiyalarni yangilash.

2030 yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirish vazifasini qo'yishimiz uchun bugun, hech shubhasiz, barcha asoslarimiz bor. Bunday natijalarni qo'lga kiritish uchun quyidagi hisob-kitoblarni keltirish mumkin. 2022–2030 yillarda 2 barobar ko'payishga erishish uchun o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4,8 foiz darajasida bo'lishini ta'minlash zarur. Agar keyingi 10 yilda bu ko'rsatkich 8 foizdan yuqori bo'lib kelganini hisobga oladigan bo'lsak, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin borligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Bunday natijalarni qo'lga kiritish uchun modernizatsiya jarayonlarini davom ettirish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va iqtisodiy sohada boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlik sohasi hamda korporativ sektorga keng imkoniyatlarni ochib berish va, eng asosiysi, iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish bo'yicha boshlagan ishlarimizni oxiriga yetkazish hisobidan erishish talab etiladi. Chunki investitsiyalar, xususan, chet el investitsiyalari iqtisodiyotning rivojlanishida – yalpi ichki mahsulot, sof ichki mahsulot va milliy daromadning o'sishida katta o'rin egallaydi. Shu tufayli ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tadigan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va kelgusi yil uchun mo'ljallangan iqtisodiy dasturning har yilgi ustuvor yo'nalishlari belgilab berilganda, investitsiyalar bilan bog'liq, ya'ni mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish masalasiga alohida to'xtalib o'tiladi.

2022 yil uchun tasdiqlangan investitsiya dasturi va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa bir qator davlat va mintaqaviy dasturlarda iqtisodiy rivojlanishimizni ta'minlaydigan bir qancha kompleks loyihalarni amalga oshirish, iqtisodiyotning yetakchi soha va

tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan yirik loyihalarning hayotga tatbiq etilishi belgilab berilgan.

Unda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar ham o'ziga xos o'rin tutadi. O'zbekiston o'z oldiga 2020 yilga borib «upper-middle income» (yuqori-o'rta daromad) maqsadini qo'ygan bo'lib, buni ta'minlashda eng zaruriy sohalaridan biri bo'lmish aholini ish bilan ta'minlash, buning uchun esa, yangi ish o'rinlarini tezda yarata oladigan va aholini yuqori sur'atlarda daromad manbai bilan ta'minlaydigan soha – tadbirkorlikni rivojlantirishga ustuvorlik qaratmoqda. Sohaning to'laonli rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar va sharoitlarni yaratish, davlat korxonalari va korporativ sektor bilan birgalikda teng raqobat muhitini shakllantirish hamda biznesni muvaffaqiyatli yuritish uchun investitsion iqlimni sog'lomlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimdir.

Ushbu natijalarga erishish uchun mamlakatimizda resurslar yetarli bo'lib, un dan samarali foydalanish, xususan, kreditlar va boshqa moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda moliya institutlarining faoliyatini kuchaytirishga e'tibor qaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'tgan yillarga nazar soladigan bo'lsak, 1991 yilda mamlakatning investitsiyalar portfeli uch manbadan (budjet, korxonalar va aholi mablag'laridan) shakllantirilgan bo'lsa, 1995 yilda kapital mablag'lar tuzilmasida xorijiy investitsiyalar va tijorat banklarining kreditlari, ikkinchi yarmidan boshlab kapital mablag'lar hajmi sezilarli oshib borgani ko'zga tashlandi. 1996 yildan boshlab har yili O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi qabul qilinib, iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilanmoqda.

Hozirgi kunda davlat iqtisodiyoti uchun samarasiz yoki bo'lmasa bo'sh turgan va foydalanilmayotgan davlat ob'ektlarini tezroq haqiqiy tadbirkorlarga topshirishni jadallashtirish maqsadida ko'plab imtiyozlar va qulayliklar berilmoqda, xususiylashtirish jarayonlari soddalashtirilmoqda.

Tadbirkorlik sub'ektlarining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2021 yil yakunlari bo'yicha 56,7 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichning yuzaga kelishida xususiylashtirish jarayonining alohida o'rni borligini ta'kidlashimiz mumkin.

2022 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bu iqtisodiyotda xususiy mulk, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va bu soha vakillari manfaatlarini himoya qilish ekanligini inobatga olib, davlat ulushini strategik va iqtisodiy asoslangan darajagacha qisqartirish davom ettiriladi, joylarda bo'sh turgan, foydalanilmayotgan, strategik ahamiyatga ega bo'l magan davlat ob'ektlari qayta tanqidiy xatlovdan o'tkazilib, yangi xususiylashtirish dasturi ishlab chiqiladi.

Bu tadbirlarning asosi sifatida Prezidentimizning yuqorida aytib o'tilgan PQ-2340-son «Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi Qarorini ko'rish kerak. Qarorda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish, xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, korxonalarning ustav kapitalidagi davlat ulushi va aktivlarini xususiy investorlarga, birinchi navbatda, xorijiy investorlarga sotish hisobidan Respublikaiqtisodiyotida xususiy mulkning darajasi va rolini tubdan oshirish va shu asosda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda

texnologik yangilashni ta'minlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkillashtirish maqsadlari ko'zlanadi.

Kichik biznes sub'ektlarining eksportdagi ulushi 2022 yilda 26,5 foizni tashkil etdi va uning 2026 yildagi qiymatini 49,6 foizgacha oshirish prognoz qilinmoqda. Xususan, tadbirkorlik sub'ektlari soliq va bojxona qonunchiligini buzganligi munosabati bilan ularning mulkini musodara qilish, to'lovchi tomonidan e'tiroz bo'lgan taqdirda, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini undirish faqat sud qarori bilan amalga oshiriladigan bo'ldi. Xo'jalik sudlari tomonidan da'vo arizasini ko'rib chiqish uchun qabul qilish va ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarish muddati 10 kundan 5 kungacha qisqartirildi.

Mikrofimlar, tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari tomonidan to'rt yilda bir martadan ko'p bo'lmagan tartibda amalga oshirilishi, moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlar o'tkazish muddati 10 kalendar kundan oshmasligi, tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar faqat so'nggi tekshiruvdan keyingi davrni qamrab olishi hamda qo'zg'atilgan jinoiy ishlar munosabati bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ekt jalb etgan advokatlar ishtirokida amalga oshirilishining belgilab qo'yilishi yurtimizda qulay biznes muhitini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'rta sinf vakillari faoliyatini erkinlashtirish, ular uchun qo'shimcha imtiyozlar yaratish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlarni alohida ta'kidlash joiz. Xususan, keyingi yillarda yagona soliq stavkasi 2,5 barobar kamaytirildi, tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berishga oid 80 ta tartib-qoida, shuningdek, litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 19 tasi qisqartirildi. 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab statistik va soliq hisobotlaridan 71 tasi bekor qilinib, ularni topshirish davriyligi ikki barobarga kamaytirildi. 2021 yildan boshlab ish haqidan hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov tadbirkorlik sub'ektlari uchun 25 foizdan 15 foizga tushirildi.

Iqtisodiy o'sish jarayonida investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojni munosib qondirish ikki o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki muammo— investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini izlash va ushbu investitsiyalar uchun qulay institutsional muhitni yaratish muammolari hal etishni talab qiladi. Inqiroz sharoitida mamlakatda investitsion faollikni ma'lum darajada saqlab turish va investitsiyalar, ishlab chiqarish hajmining pasayishini kamaytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotida bandlik darajasi tushib ketishining oldini olish uchun ko'p hollarda davlat xususiy investitsiyalar o'rniga o'z investitsiyalaridan foydalanadi. Ammo, davlatning bunday siyosati faqat vaqtincha ish beradi, aslida esa iqtisodiyotga kiritiladigan xususiy investitsiyalar manbalarini shakllantirish va institutsional sharoitlar yaratishga asosiy urg'u qaratilishi kerak edi.

Faqatgina davlat tomonidan qilinadigan faol harakatlarga potensial xususiy investorlarda (shu jumladan, xorijlik investorlarda ham) ishonch va mamlakat iqtisodiyotidagi investitsiyalarga ehtiyoj mavjud bo'lgan yo'nalishlarga kapital kiritishga bo'lgan kuchli xohishni uyg'otishi mumkin. Investitsiyalar nafaqat yirik korxonalar, balki tadbirkorlik sub'ektlarini ham qamrab olsagina mamlakat iqtisodiyotida barqaror

investitsion o'sish kuzatiladi. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, tadbirkorlikdagi investitsiyalarning inqirozni yengib o'tishdagi ahamiyatiga hali hamon yetarlicha munosib baho berilmay kelinmoqda. Tadbirkorlikning investitsion faolligi uning korxonalar umumiy xo'jalik aylanmasidagi ulushichalik bo'lsa, bu mamlakat iqtisodiyotidagi investitsion jarayonni keskin faollashtiradi va barqarorlashtiradi. Bunda nafaqat tadbirkorlik sub'ektlariga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi, balki ushbu investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi ham muhim ahamiyatga ega.

Xorij tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot sharoitida yirik korxonalar va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida hamkorlikka imkoniyat tug'diruvchi eng muhim omillar quyidagilar:

- tadbirkorlik sub'ektlarining yuksak darajada ixtisoslashganligi, shuningdek, innovatsion faolligi (zero har bir bozor segmentidagi raqobat ularni o'z innovatsion faolliklarini oshirishga majbur qiladi);
- tadbirkorlik sub'ektlarining -qayishqoq texnologik va savdo zanjirlarini barpo etish hisobiga transaksion xarajatlarni minimallashtirishga va bozor imkoniyatlarini kengaytirishga intilishi;
- yirik firmalar faoliyatida kichik innovator firmalardan foydalangan holda innovatsion jarayonlarni boshlashga bo'lgan intilish;
- hamkorlik va innovatsiyalar borasida vositachilik qiluvchi maxsus institutlar, shuningdek, venchurli tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi samarali moliya-kredit texnologiyalari mavjudligi;
- davlatning yirik biznesning tadbirkorlik sub'ektlari bilan ishlab chiqarish va hamkorlik bo'yicha barqaror aloqalarni yo'lga qo'yishni rag'batlantiruvchi maqsadli chora-tadbirlari mavjudligi;
- markaziy, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha vakolat va resurslar samarali taqsimlanganligi.

Ushbu tamoyillar davlatning tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash yangi strategiyasida (eng avvalo, amalga oshiriladigan tegishli maqsadli dasturlarda, shuningdek, budjet va soliq bo'yicha tartibga solish chora-tadbirlarida) o'z ifodasini topishi kerak.

Yirik biznes korxonalari bilan o'zaro aloqalar – tadbirkorlik investitsion faolligini oshirishning muhim sharti. Tadbirkorlik potensial ahamiyatga ega yirik biznes vakili bilan hamkorlikka kirishishi va shu orqali o'ziga kerakli manbalar va faol investitsion faoliyat olib borishiga imkon beruvchi negiz hozirlashi uchun faqatgina tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratuvchi institutsional, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishning o'zi kamlik qiladi. Buning uchun tadbirkorlikning o'zi ushbu hamkorlikda kerakli salohiyatga ega, bu hamkorlikka iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan hissani (jumladan, innovatsion ko'rinishdagi) qo'sha olishga qodir bo'lishi kerak. Tegishli institutsional shart-sharoitlar yaratish yo'lidagi muayyan olg'a siljishlarga qaramasdan, mintaqalarda tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab- quvvatlanishi ko'p jihatdan avvalgi darajasida qolmoqda. Ta'kidlash joizki,

tadbirkorlikning, boz ustiga, real sektordagi tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga yirik korxonalarni (zero, ushbu yirik korxonalar ham, o'z navbatida, tadbirkorlik bilan faol hamkorlik qilishga davlat tomonidan rag'batlantirilishi kerak) sog'lomlashtirmay turib erishib bo'lmasligi yetarlicha tushunib yetilmayapti.

Bugun tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlashga yo'naltirilgan davlat tizimlarining uzviy ravishda davlat sanoat va innovatsion siyosatining yagona o'zaniga qo'shilishi birinchi galdagi masala bo'lib qoldi. Aynan mamlakat innovatsion tizimidagi yirik va tadbirkorlik bo'g'inlari o'rtasidagi uzilish mintaqalar iqtisodiyotidagi investitsion jarayonga to'siq bo'luvchi eng jiddiy holatlardan biridir. Davlat xususiy investorlarga oddiygina bozor sub'ektlari sifatida qaramasligi, balki ularning manfaatlarini ifoda etishi va himoya qilishi kerak. To'g'ri, davlatning investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratiladigan rag'batlantirish chora-tadbirlari ham yirik korxonalar uchun, ham tadbirkorlik sub'ektlari uchun bir xilda bo'la olmaydi.

Tadbirkorlik investitsion faoliyatining sustligi (bir qator omillar sababli vujudga keladigan) yuqori investitsion risklarning mavjudligi bilan bog'liq. Tadbirkorlik sub'ektlari mustahkam hamkorlik va boshqa iqtisodiy aloqalarning yo'qligi sababli ko'p jihatdan bozorda o'z mahsulotini barqaror ravishda sota olmaydilar. Ular uchun investitsion faoliyatni moliyalashtirish, kafolatlash va sug'urtalashning samarali tizimi yaratilmagan, kadrlari tarkibi esa investitsion loyihalarni ishlab chiqish uchun yetarli malakaga ega emas. Ko'pincha tadbirkorlik vakillarining loyihalari iqtisodiyotdagi investitsion resurslar uchun kurashda raqobatga dosh bera olmaydi. Biznesni yuritish va investitsion loyihalarni tayyorlash bo'yicha professional konsalting xizmatlari tadbirkorlik sub'ektlari uchun nihoyatda qimmatlik qiladi, bu xizmatlardan foydalanishga ko'pincha ularning qurbi yetmaydi.

Yirik korxonalarkichik va yirik biznes o'rtasidagi hamkorlik yo'liga to'siq bo'luvchi asosiy holat tadbirkorlik sub'ektlarining ishonchsiz hamkor ekanligi bilan izohlaydilar. Bunga, shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqariladigan tovar va ko'rsatiladigan xizmatlar texnik darajasining pastligi ham sabab. Yana bir sabab esa tadbirkorlik sub'ektlarining yirik mahalliy va ayniqsa, xorijlik sheriklar bilan hamkorlik jarayonida foydalaniladigan xizmatlardan foydalanishga qurbi yetmasligidir. Tadbirkorlik sub'ektlari esa bunday hamkorlikka to'siq bo'luvchi holatni yirik korxonalar boshqaruv xodimlarining konservatizmi (sharik va hamkor tanlashda, ko'p hollarda ular eng ko'p foyda keltiradigan hamkorni emas, eng qulay hamkorni afzal bilishadi), qolaversa, yirik korxonalar bilan shartnoma munosabatlarini rasmiylashtirish haddan tashqarish ko'pga cho'zilishi va yirik korxonalar tomonidan qilinadigan buyurtmalar, ko'pincha, moliyaviy jihatdan ta'minlanmasligi bilan izohlaydilar. Ushbu muammoning eng samarali yechimi umumdavlat sanoat va innovatsion siyosati doirasida bu boradagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan alohida chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'lishi mumkin. Biroq, bugungi kunda bunday siyosatning aniq ishlab chiqilgan normativ-huquqiy bazasi ham, yetarli moliyaviy ta'minoti va institutsional shart-sharoitlari ham yaratilmagan. Ushbu masalani hal etish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari bilan faol hamkorlik aloqalarini olib boruvchi va ularga u yoki bu ko'rinishda yordam (texnologiyalarni olib

kirish, kadrlar tayyorlash va hok.) ko'rsatuvchi yirik korxonalarning investitsion loyihalari davlat tomonidan ham moliyalashtirilishi, ular shuningdek, maqsadli soliq imtiyozlariga ham ega bo'lishlari kerak.

Mintaqa raqobatbardoshligini baholashda asosiy mezon hisoblangan investitsion jozibadorlik butun mintaqa raqobatbardoshligining sifatini belgilab, raqobat ustunliklarini ko'rsatadi. Investitsion jozibadorlikni baholashda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, chunonchi, mintaqaning ishlab chiqarish omillariga boyligi, aholining iste'molchilik talabi kabi ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Mintaqa raqobat ustunligini ta'minlovchi va investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir etuvchi katta ahamiyatga ega parametrlarga, birinchi navbatda, jo'g'rofiy joylashuvi, iqtisodiy rivojlanish darajasi va undagi bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, kommunikatsiya imkoniyatlari, ta'lim, kadrlar va marketing salohiyati kabi omillar kiritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
2. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
5. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.
6. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
7. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHİYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
8. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
9. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
10. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQARISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O'RNINI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

11. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlantirish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 247-251.

12. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.

13. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.

14. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.

15. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.

16. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.

17. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.

18. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.

19. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.

20. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

21. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.

22. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.

23. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 205-213.

24. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.

25. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 321-325.

26. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). INNOVATIVE MANAGEMENT AS A FACTOR OF SUCCESSFUL DEVELOPMENT OF AN ENTERPRISE. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 315-320.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

27. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.

28. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 167-175.

29. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.

30. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJIY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 176-181.

31. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.

32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHİYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 162-166.

33. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.

34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.

35. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.

36. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345.